

## Ijro etuvchi hokimiyat organlarini optimallashtirish

Asrorov Bexruz Baxtiyor o'g'li | [bekhruzasrorov7@gmail.com](mailto:bekhruzasrorov7@gmail.com)

Buxoro viloyat Adliya boshqarmasi Jondor tuman  
Adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish Bosh yuriskonsulti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijro etuvchi hokimiyat organlarining optimallashtirishdagi islohotlar, optimallashtirishning mamlakat siyosiy hayotida tutgan o'rni, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili hamda bu o'rganish va tahlillar asosida takliflar va tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** : ijro etuvchi hokimiyat, vazirlik, davlat qo'mitasi, qo'mita, agentlik, inspeksiya, markaz, optimallashtirish, ortiqcha va takrorlanadigan funksiyalar, xususiylashtirish.

## Оптимизация органов исполнительной власти

Asrorov Bexruz Baxtiyor ugli | [bekhruzasrorov7@gmail.com](mailto:bekhruzasrorov7@gmail.com)

Управление юстиции Бухарской области, Жондорский район  
Главный юрисконсульт юридической службы Департамента юстиции

**Аннотация:** В данной статье описаны реформы в области оптимизации органов исполнительной власти, роль оптимизации в политической жизни страны, анализ законодательства зарубежных стран, а также предложения и рекомендации, основанные на этом исследовании и анализе.

**Ключевые слова:** исполнительная власть, министерство, госкомитет, комитет, агентство, инспекция, центр, оптимизация, избыточные и повторяющиеся функции, приватизация.

## Optimization of executive authorities

Asrorov Bekhruz Bakhtiyor ugli | [bekhruzasrorov7@gmail.com](mailto:bekhruzasrorov7@gmail.com)

Department of Justice of Bukhara region, Jondor district

Chief Legal Consultant of Legal Services of the Department of Justice

**Annotation:** This article describes reforms in the field of optimization of executive authorities, the role of optimization in the political life of the country, analysis of the legislation of foreign countries, as well as proposals and recommendations based on this study and analysis.

**Keywords:** executive power, ministry, state committee, committee, agency, inspection, center, optimization, redundant and repetitive functions, privatization.

## KIRISH

So‘nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, islohotlarning dastlabki bosqichida davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi tubdan takomillashtirildi, davlat organlari faoliyati ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash bo‘yicha samarali mexanizmlar joriy etildi, davlat funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazishning huquqiy asoslari yaratildi, shuningdek ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda to‘planib qolgan tizimli muammolarni hal etish maqsadida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan davlat idoralari tashkil etildi. Ammo, bugungi kunga kelib davlat idoralari soni keskin oshib ketishi **ijro etuvchi hokimiyatni optimallashtirishga imkon bermayapti**, davlat idoralari soni bo‘yicha teskari tendensiya kuzatilib, bu boshqaruv tizimida salbiy byurokratik omillar ko‘payishiga olib kelmoqda, korrupsiya holatlari vujudga kelishiga zamin yaratmoqda.

**Vaholanki**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5185-sonli Farmonida **ijro etuvchi hokimiyat organlari, ularning tuzilmalari va bo‘linmalarini optimallashtirish** masalalari aniq belgilangandi.[1]

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmonida ham **ijro hokimiyati, uning bo‘linmalarini hamda tuzilmalarini ixchamlashtirish** masalalari ilgari surildi. Bu farmonga asosan, 5-maqсад sifatida **ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish, 6-maqсад sifatida davlat boshqaruvi tizimida ma‘muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish**: xususiy sektorga

o‘tkaziladigan ayrim davlat funksiyalari sonini 3 barobarga oshirish kabi masalalar belgilandi. [2]

2021-yil 5-oktabrda bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston: 5 yillik islohotlar” nomli xalqaro konferensiyada hukumat ixcham bo‘lishi haqida: “Buni birinchi darajali vazifa sifatida belgilab, muammo sifatida oldimizga qo‘yishimiz kerak. Hukumat ixcham bo‘lishi kerak. Bizda juda katta davlat apparati bor, bu to‘g‘ri kelmaydi. Unga ketadigan xarajatlar juda ko‘p. Undan ko‘ra, iqtisodni rivojlantirishga yo‘naltirishimiz kerak. Qancha davlat organi ko‘p bo‘lsa, shuncha iqtisodiyot yurib ketishi qiyin bo‘ladi. Tadbirkorning ishlashi qiyin bo‘ladi. Davlat organi degani bu – byurokratiya degani. Bu qo‘shimcha vakolat, qo‘shimcha boshqaruv funksiyasi degani. Shuning uchun bu borada biz o‘sha botib ketgan qo‘llarimizni qaytarib olishimiz kerak! Bu byurokratiya natijasida korrupsiya, mana shu qo‘llardagi negativ faktorlarni yo‘qotishimiz kerak”, – dedi adliya vaziri R.Davletov.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

So‘nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimida bir necha bor islohotlar o‘tkazdi. Biroq, hozirgi boshqaruv modeli mamlakatdagi ko‘plab muammolarni hal qila olishiga hali ham ishonch yo‘q, chunki aniq belgilangan islohotlar strategiyasi mavjud emas. Davlat boshqaruvi modelini optimallashtirish uni takomillashtirish, uni davr talablari va qonun ustuvorligiga moslashtirish, markaziy hokimiyat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida izchillikni nazarda tutadi. Davlat va shahar hokimiyati organlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish fuqarolik jamiyati tinchligi, hokimiyat organlarining markaz va joylarda hamjihatligini ta’minlashning asosiy omillaridandir.

Ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining funksiya va vakolatlarini

aniq chegaralashni amalga oshirish davlat oldida turgan asosiy muammolardan iborat. Biroq ijro hokimiyat tizimi faoliyati zamonaviy talablarga javob beradigan yangi sifatlarga zo‘rg‘a ega bo‘lmoqda. Islohotlarning aksariyati yuzaki bo‘lib, davlat hokimiyati organlarining asossiz tez-tez qayta tuzilishini ko‘rsatyapti. Respublikada davlat boshqaruvi tizimini o‘zgartirishning eng dolzarb ehtiyojlari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish zarurligini namoyon etdi

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasida **25** ta vazirlik faoliyat olib bormoqda. Oxirgi yillarga nazar soladigan bo‘lsak, 10 ta vazirlik avvaldan bor edi, 3 ta vazirlik tubdan yangilandi, 12 ta vazirlik yangidan tashkil etildi. Shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat tizimida, **34** ta agentlik, **10** ta davlat qo‘mitalari, **6** ta qo‘mitalar, **15** ta inspeksiya, **6** ta markaz, **2** ta markaziy muassasa va yana, xizmat hamda komissiyalar ham mavjud.[3]

2016-yilda **48 ta vazirlik va idoralar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa**, bugungi kunga kelib ularning soni **100 ga** yaqinlashgan hamda vazirlik va idoralar xodimlarining umumiy soni **3 baravarga** oshgan. Shuningdek, ushbu keng Hukumat uchun 2016-yilga nisbatan davlat budjetidan taxminan **4 baravar** ortiqcha mablag‘ sarflangan. Shu o‘rinda chet el tajribasini misol sifatida keltirsak, Avstriya va Yaponiyada 13 ta vazirlik, Germaniyada 14 ta vazirlik, Shvetsariyada 7 ta vazirlik, Xitoyda 21 ta vazirlik faoliyat ko‘rsatadi. Vaholanki ularning aholi soni va ularda ijtimoiy munosabatlar O‘zbekistonga nisbatan ancha farq qiladi.

Davlatimizda optimallashtirishda qanday muammolar mavjud hamda nima sababdan optimal davlat boshqaruv tizimi shakllantira olmayapmiz?

**Birinchi**dan, ijro etuvchi hokimiyat organlari huquqiy maqomining ayrim holatlarda aniq chegaralab qo‘yilmaganligi ularning davlat apparatidagi aniq o‘rni va rolini aniqlash imkonini bermayapti.

**Ikkinchidan,** davlat funksiyalari va vakolatlarining haddan tashqari markazlashtirilganligi hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib kelmoqda

**Uchinchidan,** davlat-xususiy sheriklikning sust rivojlanganligi nodavlat notijorat tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlarining dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi ishtirokini cheklaydi hamda oqibatda budget xarajatlarining kamayishini ta'minlamaydi.

**To'rtinchidan,** ayrim rahbarlarda mas'uliyat va tashabbuskorlikning yetarli emasligi soha, tarmoq va hududlarni rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni va maqsadli ko'rsatmalarni o'z vaqtida hamda sifatli hal etishga salbiy ta'sir qilmoqda

**Beshinchidan,** ayrim sohalarga bir nechta vazirlik va idoralar mas'ul ekanligi oqibatida takrorlanish holatlariga olib kelib, kadr, moddiy-texnik va moliyaviy resurslarni maqbullashtirish imkonini bermayapti.

**Oltinchidan,** ijro hokimiyat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar nisbatan samarali ishlaydigan, ammo eskirgan yoki noto'g'ri tuzilgan tashkiliy tuzilmalar tomonidan amalga oshirilishi natijasida belgilangan maqsadlariga erishish va fuqarolarga samarali xizmat ko'rsatishga to'sqinlik qilinadigan holatlar juda ko'p uchramoqda va bu o'z navbatida tartibga solinmayotgan ijtimoiy munosabatni tartibga solish uchun yangi organ tuzishni taqazo qilmoqda.

Umuman olganda, hozirgi kungacha O'zbekiston Respublikasida ijro hokimiyat tizimini qisqartirish uchun turli xildagi harakatlar bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika davlat boshqaruv organlari apparatiga sarflanadigan budget mablag'larini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 603-sonli qarori(hujjat o'z kuchini yoqotgan) qabul qilingan bo'lib, 1994-yilning 1-yanvaridan boshlab, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar

markaziy apparati xodimlarining soni 46 nafarga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari apparati, ularning boshqarmalari va bo‘limlari xodimlarining soni 66 nafarga, tumanlar va shaharlar hokimliklari apparati va ularning bo‘limlari xodimlarining soni 569-nafarga, vazirlar, davlat qo‘mitalari raislari va idoralar rahbarlarining o‘rinbosarlari soni 9 nafarga qisqartirilgan.

2019-yilning 2-fevralida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi yoqilg‘i-energetika tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5646-sonli Farmoni qabul qilindi va unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tashkil etildi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi, Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi etib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi Energetika vazirligi huzuridagi Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi etib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energetikada nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi kelgusida O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi etib qayta tashkil etildi. “Energiya tejash milliy kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati tugatildi.

Optimallashtirish islohotidagi tub burilish sifatida, 2022-yil 17-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-89-sonli Farmoniga asosan, Davlat xizmatlari agentligi va Intellektual mulk agentligi Adliya vazirligiga qo‘shib yuborildi. Endi ular vazirlik tarkibida departamentlar sifatida faoliyati yuritadi. Qo‘shilish natijasida Adliyada respublika darajasidagi rahbarlar soni 2 barobarga qisqardi, boshqaruv xodimlari soni 110 taga kamaydi, vazirlik tizimidagi boshqaruv tuzilmalari 666 tadan 222 taga, bir-birini

takrorlovchi vazifalar 34 foizga, funktsiyalar 46 foizga qisqarmoqda. Natijada 84,5 mlrd so‘m iqtisod qilinmoqda. Bundan tashqari tumandagi davlat xizmatlari markazlari, FHDYo organlari va yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tuman adliya bo‘limlari bilan birlashtirilib bitta binoda faoliyat yurituvchi yagona Adliya bo‘limlariga aylantirildi. Shuningdek, Vazirlik markaziy apparatidagi boshqarmalar soni ham 24 tadan 20 taga qisqartirildi.

Ilmiy adabiyotlar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili hamda amaliyot statistik ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish natijalari asosida quyidagi **taklif va tavsiyalarni** bildirish maqsadga muvofiq.

**Birinchidan**, ijro hokimiyatini optimallashtirishning aniq strategiyasini ishlab chiqib, amalga oshirishni tezlashtirish va eng qisqa muddatlarda uning optimal tizimini yaratish lozim.

**Ikkinchidan**, ma’lum bir sohada faoliyat yuritayotgan ijro etuvchi hokimiyat organlarini birlashtirish va tugatish taklif etiladi:

-Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasini yagona vazirllika birlashtirish. Yaponiya davlatida Ta’lim, madaniyat, sport fan va texnologiya vazirligi mavjud bo‘lib, ta’limning barcha bosqichini shu bilan birga sport, madaniyat, texnologiya sohasini ham qamrab olgan. Singapurda ham birgina Ta’lim vazirligi ta’limning barcha bosqichini tartibga soladi

-Hududlarni hamda sohalarni rivojlantirish borasida Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi deyarli bir xil vazifa va funktsiyalarni bajarayotganligi sabali, ushbu ikki organdan birini tugatish

- Turizm va madaniy meros vazirligi tugatilib, madaniy meros va turizm bo‘yicha vakolatlarni Madaniyat vazirligiga o‘tkazish. Yaponiyada ushbu sohalarni



tartibga soluvchi alohida vazilik tashkil etilmagan bo‘lib, bu sohalarni Ta’lim, madaniyat, sport fan va texnologiya vazirligi hamda Yer, infastruktura, transport va turizm vazirligi tartibga soladi;

- Qishloq xo‘jaligi sohasiga mas’ul bo‘lgan davlat organlari – Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, , “O‘zbekchorvanasi” agentligi, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi, , Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi faoliyati maqbullashtirilib, ularning vazifa va funksiyalari Qishloq xo‘jaligi vazirligiga o‘tkazish va vazirlik tizimida department sifatida tashkil qilish.

*Uchinchidan*, funksiyalarni avtomatlashtirish va xususiylashtirishni kengaytirish orqali optimallashtirish. Bu nafaqat ijro organlar tizimini optimallashtirishga imkon beradi, balki budget xarajatlarini qisqarishiga ham imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-martdagi **“Yuqori likvidli va monopol tovarlarni sotish jarayonlariga bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ-5031-son Qarorining ijrosini ta’minlash doirasida birjada birja savdolari va elektron tijorat sohalarida bir qator yangi loyihalar ishga tushirildi. davlat xaridlari tizimida shaffoflikni oshirish va qo‘shimcha qulayliklarni yaratish maqsadida **2021-yilda [xarid.uzex.uz](http://xarid.uzex.uz)** yagona portal orqali davlat budjetining 879 milliardini tejaldi.

Demak, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy institut sifatida ijro etuvchi hokimiyat tizimini optimallashtirish davlat ijro etuvchi hokimiyat organlarining butun tuzilmaviy majmuini tashkil etish va faoliyatini tashkil etish tamoyillarini doimiy ravishda takomillashtirish, qo‘shimcha qilish va rivojlantirishni, uni shakllantirish va faoliyat yuritish amaliyotini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida aks ettirib, ushbu jarayonni zamon talablariga muvofiqlashtirishni lozim. Shuningdek,

ijro hokimiyatini optimallashtirishning alohida bosqichlarini ishlab chiqib, ularni amalga oshirishni tezlashtirish va eng qisqa muddatlarda uning optimal tizimini yaratish lozim. Davlat boshqaruvini optimallashtirish, davlatimiz uchun juda ham istiqbolli hisobalanib, bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi: budget yukini yengillashtiradi, ijro organlarning bir qancha funksiyalari avtomatlashtiriladi va xususiy sektorga o‘tkiziladi, organlar soni, ulardagi xodimlar soni qisqaradi hamda ularning faoliyatidagi samaradorlik oshadi, mahalliy ijro hokimiyatining faoliyati takomillashtiriladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/-3331174>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi hukumati ishini tashkil etishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-4136-sonli Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020-y., 07/20/4569/0069-son.
4. Xakimov R.R.Davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dissertatsiya. Yur. Fan. Dok. – T. ,2018. – 255b.
5. V.Goncharov, S. Shpinev, J.Zalesny. Imperfection of the model differentiation of powers and subjects of jurisdiction between federal and regional executive bodies in the Russian Federation. Laplage em Revista (International), vol.7, n.2, May.- Aug. 2021, p.488-494
6. Vitaly Goncharov, Tatiana Mikhaleva. Analysis of the processes of optimization of the executive power system in Russia. E3S Web of Conferences 284, 11006 (2021) TPACEE-2021
7. R. C. Bansal Dr., Birla Institute of Technology & Science, Pilani. Optimization Methods for Electric Power Systems: An Overview. International Journal of Emerging Electric Power Systems: Vol. 2: Iss. 1, Article 1021. 2005

8. Asadov, S. F. O. G. L. (2021). FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDA DAVLAT ISHTIROKI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 789-799.
9. Atalikova, G. S., & Asadov, S. F. O. G. L. (2022). MASLAHAT VA KONSALTING XIZMATLARI: HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 299-309.
10. Асадов, Ш. Ф. У. (2022). КОНСУЛЬТАЦИОННЫЕ УСЛУГИ: КАК УСЛУГИ ОКАЗЫВАЕМЫЕ НА ВОЗМЕЗДНОМ ОСНОВЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 716-723.